

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XITOIY XALQ RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI SIYOSIY, MA'DANIY, SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Husenova Ruxshona Shavkatjon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro munosabatlar fakulteti talabasi

ruxshonahusenova87@gmail.com

+99893-850-70-58

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10616957>

Annotatsiya: Qisqa davr mobaynida O'zbekiston Xitoy bilan hamkorlikda savdo-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga kirishish, sanoatni rivojlantirish, mamlakatning oziq-ovqat, energetika va transport xavfsizligini ta'minlash kabi murakkab vazifalar yechimiga bosqichma- bosqich, muvaffaqiyatli erishdi.

Kalit so'zlar: Davan davlati, U-Di imperatorligi, strategik, deklaratsiya, psixotrop moddalar, terrorizm, mafkura, kooperatsiya, SHHT, optika priborlari.

"O'zbekiston Xitoy bilan hamkorlikdan manfaatdor"

Shavkat Mirziyoyev


(Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasi raisiga Xitoy va O'zbekiston diplomatik munosabatlari o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan yo'llagan maktubida)

Tarix qaysidir ma'noda kelajakka ta'sir qiladi. Zero, tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Shu sababli ham Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston Respublikasining savdo-iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalari yuksak darajada ekanligiga qaysidir ma'noda tarix ham sababchi. Xitoy va O'zbekistonning munosabatlariga qadimdan nazar tashlaydigan bo'lsak, ikki ming yillik tarixga ega deb aytsak xato bo'lmaydi. Chunki, bunga sabab Buyuk ipak yo'lining bu ikki davlatdan o'tganligi va mil.avv II asrdan bu ikki davlat hukmdorlari o'rtasida savdo, madaniy va hatto siyosiy aloqalarning o'rnatilganligidir. Bunga qadimgi U-Di imperiyasi va Davan davlatini misol qilib olsak bo'ladi. Mil.avv II asrda Xitoy imperatori U-Di elchi Chjan Szyanni dushman xunnlarga qarshi hamkor topish uchun yuboradi. Elchi Davan davlatini hamkor sifatida topadi chunki o'sha davrda Davan kuchli harbiy qo'shin, ko'p aholiga ega rivojlangan davlat edi. Chjan Syan bu davrda faqatgina siyosiy aloqa o'rnatib qolmasdan Xitoyga Farg'onaning zotli otlari va beda urug'ini olib ketgan. Bu bevosita ular o'rtasidagi savdo ayirboshlash munosabatlaridan darak beradi. Hozirgi kunda esa Xitoy Xalq Respublikasi O'zbekiston Respublikasining eng yirik strategik va iqtisodiy hamkori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Xitoy bilan **diplomatik munosabatlarni** o'rnatgan davlat hisoblanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini Xitoy Xalq Respublikasi birinchilar qatorida 1991-yilda qabul qilgan. Ikki mustaqil davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o'rnatilgan va xuddi shu yilda XXRning O'zbekistondagi elchixonasi ochilgan. 1995-yilda esa O'zbekistonning Pekinda elchixonasi ochildi. Ikki davlat rahbarlari tomonidan oliy darajadagi davlat rahbari tashriflari uyushtirildi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov va Xitoy Xalq Respublikasi rahbarlari Szyan Szemin, Xu Tsintao, Si Tszinpin ishtirokida 10dan ortiq davlat tashriflari amalga oshirilgan edi. Xu Szintaoning 2004-yil iyundagi O'zRga tashrifi chog'ida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada

rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida qo'shma deklaratsiya, shuningdek, narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqununiy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda xamkorlik qilishga, texnikaviy iqtisodiy hamkorlikka oid bitimlar imzolandi. Keyingi 2017-2023-yillarda ham Xitoy va O'zbekiston o'rtasida faol tashqi siyosat va munosabatlar olib borildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 11-13-may kunlari Xitoyga davlat tashrifini amalga oshirdi. Xitoy Xalq Respublikasi prezidenti Si Tszinpin 2022-yilda O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi. 2022-yilda bu ikki davlat o'rtasida keng qamrovli strategik sheriklik o'rnatildi. Bundan tashqari bir necha yillardan beri ikki davlat o'rtasida parlamentlar va hukumatlararo turli doiradagi uchrashuvlar tashkil etib kelinadi. O'zbekiston doimo xitoyning vazmin **tashqi siyosatini**, terrorizm, ayirmachilik, ekstramizga qarshi qaratilgan tadbirini qo'llab quvvatlaydi. 2017-yilda SHHT ning bo'lib o'tgan samitda Shavkat Mirziyoyev so'zga chiqib, yosh avlodda terrorizm va ekstramizm mafkurasiga qarshi qat'iy va barqaror immunitetni shakllantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, kooperatsiyani kuchaytirishga ahamiyat qaratdi. Mazkur takliflar doirasida bugungi kunda SHHTga a'zo davlatlar bilan birgalikda ko'plab islohotlar amalga oshirmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasi, 2023-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonning eng yirik **tashqi savdo** hamkori hisoblanadi, chunki u O'zbekistonning ham eksport, ham import bo'yicha hamkorlari orasida savdo aylanmasiga ko'ra yetakchi o'ringa ega.

Страны	2020 г.	2021 г.	2022 г.
 КНР	4 020,8	4 789,7	6 028,4
Экспорт	1 187,0	1 577,3	1 769,7
Импорт	2 833,9	3 212,4	4 258,7
 Российская Федерация	3 585,9	4 463,3	5 674,1
Экспорт	933,0	1 274,5	1 853,0
Импорт	2 652,9	3 188,8	3 821,1
 Казахстан	1 769,8	2 479,5	2 871,1
Экспорт	556,9	735,4	883,9
Импорт	1 212,9	1 744,1	1 987,1
 Турция	1 230,4	2 147,8	2 237,1
Экспорт	553,5	1 120,9	1 125,4
Импорт	676,8	1 026,8	1 111,7
 Республика Корея	1 448,9	1 202,7	1 657,6
Экспорт	29,0	32,4	34,3
Импорт	1 419,8	1 170,3	1 623,4
 Кыргызстан	563,0	598,2	756,5
Экспорт	478,6	489,5	597,6
Импорт	84,4	108,7	158,9
 Германия	482,0	457,7	706,7
Экспорт	45,6	37,1	57,9
Импорт	436,4	420,6	648,8
 Туркменистан	338,2	519,5	533,5
Экспорт	87,8	120,0	146,5
Импорт	250,4	399,5	387,0
 Афганистан	465,8	444,9	470,5
Экспорт	464,3	442,9	465,1
Импорт	1,5	2,0	5,4
 Индия	197,8	325,6	434,3
Экспорт	8,1	18,6	21,1
Импорт	189,7	307,0	413,1

Xitoydan O'zbekistonga texnika, elektronika, elektr jihozlari, kofe, xalq iste'mol mollari, choy va ziravor, optika priborlari va apparatlari, transport vositalari, to'qimachilik mahsulotlari, kiyimkechak, poyabzal va boshqalar keltiriladi. O'zbekiston Xitoyga rangli metallar va ulardan tayyorlangan buyumlar, mineral yonilg'i, neft va neft mahsulotlari, paxta va ipak tolasi, plastmassa va boshqalar yuboradi. Ayni vaktida O'zbekistonda Xitoy investorlari ishtirokida tuzilgan 122 korxona ro'yxatdan o'tgan. Shulardan 102 tasi qo'shma korxona, 20 tasi 100%

Xitoy sarmoyasi hisobidagi korxonadir. Xitoyning O'zbekistonga kiritilgan sarmoyasi hajmi 435 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

Ikki mamlakat o'rtasida **madaniyat**, fan, texnika va ta'lim sohasida ham hamkorlik rivojlanmoqda. Xitoy vakillari Samarqandda o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida, O'zbekiston folklor jamoalari Pekinda har yili o'tadigan xalqaro madaniyat va turizm festivalida muntazam ishtirok etadilar. 2000-yilda ilmiy texnika hamkorligi bo'yicha maxsus qo'mita tashkil etilgan. 2001-yil Toshkentda Xitoy madaniy markazi tashkil topdi. 2001-yilda O'zbekiston Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgandan beri ushbu tashkilot doirasidagi munosabatlar rivojlanmoqda. Ayniqsa, terrorizmga qarshi kurash va O'rta Osiyoda xavfsizlikni ta'minlash sohasida ikki tomonlama hamkorlik kengaymoqda. Keyingi paytda juda ko'p o'zbek yoshlari xitoy tilini o'rganishga qiziqish bildirmoqda va xitoyliklar ham o'zbek tilini o'rganmoqda. Bu bilim va madaniy aloqa almashinuviga xizmat qilyapti. Masalan, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Samarqand davlat chet tillari instituti huzurida tashkil etilgan Konfutsiy nomli institut xitoy tili va madaniyati markaziga aylandi. Hozirda Xitoyda o'zbek tilini o'rganishga qiziqish ham yuqori. Markaziy millatlar, Pekin xorijiy tillar, Shanxay xalqaro tadqiqot universitetlarida tilimiz muvaffaqiyatli o'qitilyapti. Yana bir nufuzli ta'lim muassasasida esa o'zbek tili kafedrasida faoliyat yuritmoqda. Ayni qiziqish yurtimizda tahsil olayotgan xitoylik talabalar soni ortishida ham namoyon bo'lmoqda.

Mehnatsevar, mard, tanti, sadoqatli va mas'uliyatli, bag'rikeng va fidoyi Xitoy va O'zbekiston xalqlarining oila, davlat va hayot haqidagi qarashlari o'xshashdir. O'zbekiston va Xitoy ko'p asrlik tarixga, noyob madaniyat va ulkan intellektual salohiyatga ega. Bu davlatlararo gumanitar hamkorlikni sezilarli darajada faollashtirish, ikki mamlakat oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida yaqin sheriklik munosabatlarini o'rnatishga imkoniyatlar yaratishni, shuningdek, o'zaro madaniy aloqalarni kengaytirishni taqozo etadi. Biz savdo va investitsiya, innovatsiya va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda hamkorlikni rivojlantirmoqchimiz. Binobarin, ushbu jarayonda mintaqaviy raqobat, suverenitetni saqlab qolish, infratuzilmaviy murakkablik va manfaatni muvozanatga solish kabi chaqiriqlar yuzaga chiqishi tabiiy. Hamkorlikda muvaffaqiyatga erishish uchun har ikki tomondan puxta rejalashtirish, diplomatik sa'y-harakat olib borish talab etiladi.

References:

1. <https://www.archive.uz/post/xitoy-ozbekiston-dostligining-yangi-yorqin-sahifalari>
2. <https://kun.uz/uz/news/2023/05/21/ozbekiston-xitoy-munosabatlari-xronologiyasi>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiton-va-xitoy-siyosiy-munosabatlaring-bugungi-holati>
4. <https://www.trt.net.tr/uzbek/turk-dunyosi/2017/01/04/mirziyoyev-o-zbekiston-xitoy-bilan-hamkorlikdan-manfaatdor-643491>
5. 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi(2017-yil) A.Sagdullayev. V.A.Kostetskiy (135-bet va 143-bet)
6. 11-sinf O'zbekiston Tarixi (2018) Narzulla Jo'rayev, Akbar Zamonov(122-123-bet)